



KRIPTOVALYUTALARNING FUQAROLIK HUQUQIDA ASHYOVIIY JIHATDAN QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Ergashev Mirzobek Tohir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Adliya vazirligi Rahbariyat qoshidagi Qabulxona kotibi

Annotatsiya: Bugungi kunda, insoniyat misli ko'rilamgan darajada rivojlanish bosqichiga yetib keldi. Raqamli texnologiyaning shiddat bilan o'sib borishi deyarli hayotning barcha javhalarini o'z ichiga qamrab oldi. 2009-yilda vujudga kelgan kriptovalyuta tushunchasi hozirgi kunda ko'plab dunyo mamlakatlari tomonidan unga bo'lgan munosabat o'zgarib bormoqda. Hattoki ba'zi mamlaktlar ularni rasmiy pul birligi sifatida, qolganlari esa Tovar, mulk va shaxsiy pul sifatida qarab soliq solishda muvaffaqiyatli ishlarni amalga oshirishmoqda. Hozirgi tezismizda kriptovalyutalarni, ya'ni bitkoinlar, O'zbekiston fuqarolik huquqida ashyoviy jihatdan qiyosiy-huquqiy tahlilini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar, ashyoviy huquq, ashyo, kriptovalyuta, bitkoin, moddiy va moddiy, ne'matlar, pul.

COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS OF CRYPTOCURRENCIES IN CIVIL LAW

Ergashev Mirzobek Tohir ugli

Graduate student of Tashkent State Law University

Secretary of reception under the leadership of the Ministry of Justice

Annotation: today, humanity has reached an unprecedented stage of development. The rapid growth of digital technology has encompassed almost all the jewels of life. The concept of cryptocurrency, which arose in 2009, is currently changing the attitude towards it by many world countries. Even some countries are



successfully doing things to tax them, depending on them as an official monetary unit, and the rest as goods, property and personal money. In our current thesis, we will consider the comparative-legal analysis of cryptocurrencies, that is, Bitcoins, Uzbekistan in civil law.

Keywords, material law, material, cryptocurrency, bitcoin, material and material, favors, money.

Fuqarolik huquqining **obyekti** huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan moddiy va nomodddiy ne'matlardir. Faqatgina qonunchilik obyekti ustida o'rnatiladigan huquq va majburiyatlar, harakatlar qonun hujjatlari va axloq normalari asosida amalga oshirilishini talab etadi. Fuqarolik kodeksi 81-moddasiga ko'ra, fuqarolik huquqi obyektlari 2 turga, ya'ni moddiy(ashyoviy) va nomoddiy(noashyoviy) ne'matlarga bo'linadi.

Kriptovalyuta moddiy qiymatga ega bo'lganligi bois, uni pullar va qimmatli qog'ozlar bilan birga qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Pul bilganimizdek, fuqarolik huquqida obyekt hamda predmet bo'la oladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, pulning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, pul o'rmini oltin, kumush, tuz va keyinchalik tangalar va qog'ozli qiymatliklar bosgan. Zamon rivojlangani sari pulning ham shakli o'zgarib boradi. Hozirgi kunda pulning elektron raqamli hamyonlarda saqlanadigan elektron shakli ham mavjuddir.

Shuningdek, pul quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam etadi:

- Qonun hujjatlariga asosan iste'molda bo'lgan va turga xos alomatlarni o'zida ask ettirgan turdir;
- Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda teng qiymatga ega bo'lgan va mustqail obyekt sanaladi;
- Ekvivalent sifatida teng qiymatda bo'lgan boshqa ashyolar bilan almashtira bo'ladi;



- Moddiy va manaviy zararni undirishda foydalaniladi;
- Pul har qanday qonuniy zararni qoplashda qo'llanilishi mumkin.
- Davlat tomonidan himoya qilinadi.

Kriptovalyuta, ham pulga o'xshash jihatlari mavjud, biroq uning nazorati, qiymati belgilanishi aniq bir tashkilot yoki hukumat organi tomonidan amalga oshirilmaydi. Yuqorida sanab o'tilgan puldagi ko'p xususiyatlarni o'zida mujassam etsada, fuqarolik huquqida pul kabi to'liq va mustaqil obyekt sifatida ko'rilmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bilan birgalikda qiyosiy tahliliga nazar solamiz. Qimmatli qog'ozlar Fuqarolik kodeksi 96-moddasiga asosan, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qiladigan holda tasdiqlovchi hujjatdir.

Kriptovalyutaga qiyoslasak, ba'zi mulkiy huquqlarni o'zida aks ettirishi mumkin hamda o'zining rekvizitlariga ega bo'lishi mumkin. Biroq boshqa tomondan u hujjat sanalmaydi. Chunki uning aniq elektron shakldaligi belgilangan.

Demak, Qimmatli qog'ozlar va kriptovalyuta o'rtasida bog'liqlik jihatlari mavjud emas.

Ashyoviy jihatdan qiyosiy huquqiy tahlil qilamiz. Ashyo o'zining iqtisodiy tayinlanishiga, jismiy va boshqa xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tavsiflanishi mumkin. Bular:

- Fuqarolik muomilasidan chiqarilgan va chiqarilmagan ashyolar;
- Ko'char ashyolar va ko'chmas ashyolar;
- Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar;
- Bo'limadigan va bo'linmaydigan ashyolar;
- Iste'mol qilinadigan va istemol qilinmaydigan ashyolar;
- Asosiy va mansub ashyolar;
- Murakkab ashyolar;



- Hosil va daromad beradigan ashyolar;
- Jonli va jonsiz ashyolar.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda, kriptovalyutani, ya'ni bitkoinni, fuqarolik huquqi obyektini sifatida tahlil qilamiz. Kriptovalyuta qanchalik fuqarolik huquqi obyektiga mos kelish holatini qiyosiy hamda nazariy jihatdan tahlil qilamiz.

Avvalambor, "ashyo" tushunchasiga ta'rif beramiz. Ashyolar – muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo'la oladigan narsalardir. Kriptovalyutani ushbu ta'rifga qanchalik mos kelishini nazariy tahlil qilamiz. Kriptovalyuta muayyan moddiy qiymatga ega, garchi uning qiymati jahon birja bozorida o'zgaruvchan bo'lsada. Shuningdek, bu kriptovalyuta iqtisodiy munosabatlar predmeti sanala oladi. Misol uchun: oldi-sotdi shartnomasida bitkoin sotib olish shartnomasi tuzilganda, shartnoma obyektini sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan xizmat uchun to'li shakli yoki turini kriptovalyuta bilan ham amalga oshirish mumkin. Narsa degan tushunchaga aniq ta'rif bo'lmasligi bois, ushbu jihatida noaniqliklar mavjud bo'lishi mumkin. Kriptovalyuta narsa sifatida ko'rish uchun asosiy me'zonlar mavjud emas. Shu sababli, ashyo tushunchasiga kriptovalyuta to'liq holatda mos kelmasligi mumkin.

Ashyoning xususiyatlariga qarab bitkoinni tahlil qilib chiqiladi.

- Fuqarolik muomilasidan chiqarilgan va chiqarilmagan ashyolar sirasiga kirish yoki kirmaslik holati bo'yicha nazar solsak, fuqarolik muomilasidan chiqarilgan ashyolarga bular fuqarolik huquqi obyektida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan egalik qilish taqiqlangan mahsulot yoki narsalardir. Misol uchun, qurol-yarog', portlovchi moddalar yoki zararli moddalar ushbu xususiyatga



sanalishi mumkin. Ushbu, kriptovalyutani chiqarilmagan ashyolar jihatidan nazar salsak, valyuta qiymatliklari, pul, oltin va qimmatli qog'ozlar hamda toshlar kiritish mumkin. Demak, kriptovalyuta fuqarolik muomilasidan chiqarilmaydigan ashyo xususiyatiga yaqinroq bo'lishi mumkin.

- Ko'char ashyolar va ko'chmas ashyolarga qarab bitkoinga shakliga nazar solinsa, bitkoin aniq shakli yo'qligi, yani internet tarmog'ida mavjudligini hisobga olsak, ayshoning bu xususiyatining hech bir jihatiga mos kelmasligin ko'ramiz.

- Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar nuqtai nazar tahlil qilinsa, kriptovalyuta xususiy yoki turga xosligini aniqlash biroz bahsli bo'lishi mumkin. Xususiy ashyoga ta'rif bersak, xususiy alomatlari bilan alohidabelgilanadigan ashyo, faqatgian o'ziga xos belgisi va yolg'iz ashyodir. Birinchi navbatda pulni xususiy yoki turga xos ashyoligi tomonini tahlil qilsak, pulda aniq va muayyan belgi hamda o'zining raqami mavjudligi uchun pulni xususiy turga mos deyish mumkin. Boshqa tomondan esa, pul to'lov ekvivalenti sifatida qaraladi. Duqarolik kodeksi 87-moddasi 2-qismiga ko'ra o'zida xususiy alomatlarini kasb etgan ashyolar bo'linmasligi aniq qilib belgilangan. Biroq, pulni boshqasi bilan almashtirish mumkin. Demak, pulda turga xos alomatlar mavjud. Kriptovalyuta ham sonlardan iboratdir. Bir kriptovalyutadagi sonlar boshqa kripto valyutani takrorlamaydi. Chunki, har bir kriptovalyuta vujudga kelganda, zanjir shaklida o'zidan oldingisiga ergashadi hamda oldingisini takrorlamaydi. Bu jiahtdan xususiy turga xos bo'lishi mumkin. Biroq kriptovalyuta 16 xonali sonlardan iborat bo'lganligi sababli, uni kichik miqdori ham bo'lishi mumkin. Qiziqarli jihati shunda iboratki, kriptovalyutani pulga o'xshab kattasini kichigiga almashtirib bo'lmaydi. Agarda bitkoining qiymati oshib borishda davom etsa, sonlar oldiga sonlar qo'shiladi, ya'ni uni kichik qiymati bilan katta qiymatdakisini almashtirish degan tushuncha mavjud emas. Bitkoin xususiy jihatlarini o'zida aks



ettiryapti. Biroq FKning 87-moddasi 2-qismida ko'rsatilganidek, bitkoin bo'linmas hisoblanmaydi. Bu uni o'z-o'zidan xususiy turga mansubligini inkor etadi. Shu sababli, bahsli holat vujudga keladi, ya'ni ashyoning bu xususiyatiga aniq bir mos kelamsligini ko'rish mumkin.

- Bo'limadigan va bo'linmaydigan ashyolarning xususiyati qarab, kriptovalyuta bo'linadigan ashyo turlariga qo'shish mumkin. Chunki 1 dona bitkoinni bir necha qismlarga, ya'ni mayda bo'laklarga bo'lish mumkin. Har bir bo'linganda uning miqdori kichraytiriladi. Biroq kichraygan sari uning xususiyati va maqsadi o'zgarmasdir.

- Iste'mol qilinadigan va istemol qilinmaydigan ashyolar xususiyatiga kriptovalyuta mos kelmaydi.

- Asosiy va mansub ashyolar xususiyatiga ham nazar solsak, kriptovalyuta ham ushbu xususiyatlar mavjud emas. Chunki mansub ashyo asosiy ashyoga xizmat qilishi belgilangan hamda umumiy-xo'jalik tomondan bir biriga bog'liq bo'lishi kerak. Ushbu jihatlarning hech qaysi biri kriptovalyutada mujjassam emas. Biroq bir tomondan, kriptovalyutanining asosi blokchain deb hisoblashimiz mumkin. Biroq bular orasida mansub va asosiy ashyo jihatlari mavjud emas. Chunki bitkoinning asosi bu blockchaindir.

- Murakkab ashyolar xususiyati jihatidan diqqar qaratsak, bitkoin o'zida bir necha ashyolarni ham birlashtirmaydi, va bu alohida bir yaxlit ashyoni ham vujudga keltirmaydi.

- Hosil va daromad beradigan ashyolara nazar solsak, kriptovalyuta daromad mabai bo'lishi mumkin. Chunki, uning narxi o'zgaruvchanligi, daromad bilan ham egallovchini ta'minlashi mumkin. Jahon birja bozorida uning faoliyati erkin tarzda ekanligi sababli, uning narxining oshib borishi daromad sifatida qaralishi mumkin. Hozirda birja bozorida erkin bitkoinning narxini oshib va tushib borishi uning ba'zi onlayn treyderlar uchun daromad manbai bo'lishiga xizmat qiladi.



REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi:
<https://lex.uz/docs/-111189>
2. Fuqarolik huquqi (Yuridik texnikumlar uchun darslik)/ mualliflar jamoasi. O.Oqyulov, N.Imomov, M,Baratov – T. TDYU, 2021,
3. Fuqarolik huquqi darslik I qism. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida
4. Fuqarolik huquqi (Yuridik texnikumlar uchun darslik)/ mualliflar jamoasi. O.Oqyulov, N.Imomov, M,Baratov – T. TDYU, 2021.
5. IRS Virtual Currency Guidance (Notice 2014-21) URL:
<https://www.irs.gov/pub/irs-drop/n-14-21.pdf>
6. European Central Bank. Payments and markets glossary.
URL:<https://www.ecb.europa.eu/home/glossary/html/act6e.en.html#32>